

QASHQADARYO VILOYATIDA AHOLINING QON VA QON YARATISH TIZIMI KASALLIKLARIGA CHALINISHNING HUDUDIIY JIHLATLARI

Xujamova S.B.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedrasi o'qituvchisi

e-mail: xujamovasanobar2804@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyati aholisi orasida qon va qon yaratish tizimi kasalliklarining hududiy tarqalishi o'rganilgan. Ushbu kasalliklarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat hududlari va qishloq xo'jaligi intensiv rivojlangan joylarda kasallanish darajasi nisbatan yuqori ekani aniqlangan. Shuningdek, maqolada profilaktik chora-tadbirlar, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va tibbiy xizmat sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qon kasalliklari, epidemiologik tahlil, ekologik omillar, hududiy farqlar, tibbiy profilaktika.

Annotation. The article studies the territorial distribution of diseases of the blood and hematopoietic system among the population of the Kashkadarya region. The natural-geographical, ecological and socio-economic factors affecting the development of these diseases are analyzed. According to the results of the study, the incidence rate is relatively high in industrial areas and areas with intensive agricultural development. The article also provides recommendations for preventive measures, the formation of a healthy lifestyle and improving the quality of medical services.

Keywords: Blood diseases, epidemiological analysis, ecological factors, regional differences, medical prevention.

Zamonaviy tibbiyot va tibbiyot geografiyasi aholining sog'lig'ini ta'minlash hamda kasalliklarning oldini olish bo'yicha kompleks tadqiqotlarni talab etadi. Shu jihatdan, qon va qon yaratish tizimi kasalliklarining hududiy jihatdan o'rganilishi muhim ahamiyat kasb

etadi. Ushbu kasalliklar inson organizmining normal faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, nafaqat jismoniy sog'liq, balki mehnat qobiliyati, ijtimoiy hayot sifati va demografik jarayonlarga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Qashqadaryo viloyati tabiiy-geografik sharoiti, ekologik holati va iqtisodiy faoliyatining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligida kimyoviy vositalarning keng qo'llanilishi va iqlim o'zgarishlari viloyat aholisi orasida turli kasalliklarning, jumladan, qon va qon yaratish tizimi kasalliklarining keng tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois mazkur hududda ushbu kasalliklarning epidemiologik tahlili, ularning hududiy farqlari va rivojlanish omillarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati aholisi orasida qon va qon yaratish tizimi kasalliklarining hududiy tarqalish xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ushbu kasalliklarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa omillar tahlil qilinadi hamda ularning oldini olish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

Qon va qon yaratish tizimi kasalliklari inson organizmida fundamental fiziologik jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu kasalliklarning shakllanishi va hududiy tarqalishini tahlil qilishda tabiiy-geografik omillar, ekologik holat, demografik tarkib, iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda tibbiy infratuzilmaning ta'siri o'zaro bog'liqdir. Ayniqsa, iqtisodiy-geografik jihatlarni hisobga olgan holda ushbu kasalliklarning viloyat bo'ylab noekvivalent taqsimlanishi tahlil qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyatining tabiiy-geografik sharoiti kasalliklarning tarqalishida muhim rol o'ynaydi. Viloyatning iqlimi kontinental bo'lib, yoz faslining jazirama issiqligi va qish faslining nisbatan sovuqligi organizmdagi gematopoetik jarayonlarga ta'sir etishi mumkin. Quyidagi asosiy tabiiy omillar bu kasalliklarning rivojlanishiga sharoit yaratadi:

Suv resurslarining sifati va mineral tarkibi: Ichimlik suvining qattiqligi va tarkibidagi og'ir metallar (mishyak, simob, qo'rg'oshin) qon kasalliklarini keltirib

chiqarishi mumkin. Sanoat chiqindilari bilan ifloslangan suv manbalari gematologik kasalliklarning ortishiga sabab bo'ladi.

Tuproq tarkibi va ekologik degradatsiya: Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida pestitsid va mineral o'g'itlarning haddan tashqari qo'llanilishi tuproqning ifloslanishiga olib keladi. Ushbu toksik elementlar oziq-ovqat mahsulotlari orqali inson organizmiga kirib, qonning normal regeneratsiya jarayonlarini izdan chiqaradi.

Atmosfera havosining ifloslanishi: Viloyatda neft va gaz qazib olish sanoati rivojlangan bo'lib, atmosfera havosida oltingugurt dioksidi, azot oksidlari va og'ir metallar miqdori yuqori. Bu esa suyak iligi faoliyatini susaytirib, leykemiya va boshqa qon kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Viloyatning iqtisodiy geografik rivojlanish darajasi ham qon va qon yaratish tizimi kasalliklari tarqalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, sanoatlashgan va qishloq xo'jaligi yuqori rivojlangan hududlarda ushbu kasalliklarning uchrash darajasi yuqoriroqdir.

a) Sanoat mintaqalari (Qarshi, Muborak, Koson): Bu hududlarda neft-gaz va kimyo sanoati rivojlangan bo'lib, sanoat chiqindilari ekologik holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish jarayonida zararli moddalar bilan doimiy kontakt qonning morfologik tarkibini buzadi. Ushbu hududlarda ishlovchi aholining mehnat sharoiti, kasbiy kasalliklar va stress omillari ham qon yaratish tizimi kasalliklarini kuchaytiradi.

b) Qishloq xo'jaligi mintaqalari (Shahrisabz, G'uzor, Qamashi, Kasbi, Mirishkor, Nishon, Koson, Qarshi, Ko'kdala, Chiroqchi): Ushbu tumanlarda qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalarning keng qo'llanilishi (pestitsidlar, herbitsidlar) suyak iligi faoliyatini buzadi va gematologik kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Oziq-ovqat mahsulotlari orqali organizmga tushadigan zaharli moddalar leykotsitlar va eritrotsitlar nisbatining buzilishiga olib keladi. Aholining qismi kam ta'minlangan bo'lgani sababli, temir va vitaminlarga boy mahsulotlar iste'moli yetarli emas, bu esa anemiya holatlarining ortishiga olib keladi.

c) Ekologik toza mintaqalar (Dehqonobod, Kitob, Nishon): Bunday hududlarda sanoat ifloslanishi kam bo'lishiga qaramay, tibbiy xizmatning yetarli emasligi va muvozanatsiz ovqatlanish sababli anemiya holatlari kuzatiladi.

Viloyatning ijtimoiy-demografik tarkibi ham qon kasalliklari tarqalishiga bevosita quyidagilar katta ta'sir qiladi:

Aholining yosh tarkibi: Yosh bolalar va homilador ayollar orasida anemiya keng tarqalgan bo'lib, bu ularning temir va vitaminlarga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi bilan bog'liq.

Ijtimoiy tabaqalanish: Iqtisodiy jihatdan past qatlamdagi aholi sog'lom oziq-ovqat mahsulotlariga kamroq ega bo'lib, bu anemiya va boshqa qon kasalliklarining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Tibbiy xizmat sifati: Hududiy farqlar sababli ayrim tumanlarda gematologik markazlarning yetishmovchiligi qon kasalliklarining kech tashxislanishiga olib keladi.

jadval

Qashqadaryo viloyati ma'muriy hududlari bo'yicha aholining qon va qon yaratish tizimi kasalliklariga chalinishi

(100 000 aholiga nisbatan)

Ma'muriy hududlar	2015	2020	2024
Qarshi sh.	11450,97	4675	1954,4
Shahrisabz sh.	88355,42	10881	8454,8
Tumanlar:			
G'uzor	10459,94	8004	3154,1
Dehqonobod	5013,51	6680	4138,7
Qamashi	6509,45	8692	2187,4
Qarshi	3997,32	6937	4526,5

Koson	5699,07	1495	3121,2
Kitob	13725,38	31051	2187,4
Mirishkor	10120,38	14477	10234,7
Muborak	11900,82	6767	2454,1
Nishon	9757,64	10871	4394,8
Kasbi	11590,74	8137	4082,4
Chiroqchi	10570,35	22019	3068,6
Shahrisabz	8742,56	14045	6187,4
Yakkabog'	4289,95	9513	2962,0
Ko'kdala**			382,4
Qashqadaryo viloyati	8752,19	176844	4757,0

**- 2022-yilda Chiroqchi tumanidan ajralib chiqqan

Qashqadaryo viloyatidagi qon va qon yaratish tizimi kasalliklari soni bo'yicha tumanlarni guruhlash orqali hududiy farqlarni yaxshiroq tushunish mumkin. Bunda kasalliklarning o'sish yoki kamayish darajalariga asoslanib, tumanlarni turli guruhlarga ajratish mumkin. Quyidagi tahlil orqali tumanlarni kasallik soniga qarab guruhlaymiz (jadval).

1. Yuqori darajadagi kasalliklar (100 000 aholiga 10 000 dan yuqori)

Shahrisabz shahri 2015-yildan 2024-yilgacha davomida yuqori kasallik darajasiga ega bo'lib, bu hududda kasallanish davom etmoqda. Ammo, so'nggi yillarda kasallik darajasi sezilarli pasaygan.

2020-yilda Kitob tumanida kasallanishning keskin ortishi kuzatilgan. Buning sababi ekologik omillar, sanoat faoliyati yoki boshqa epidemik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, keyingi yillarda kasallik darajasi kamaygan.

2. O'rta darajadagi kasalliklar (100 000 aholiga 5 000 dan 10 000 gacha)

G'uzor tumani o'rta darajadagi kasallanishga ega. Kasallik darajasi sezilarli pasaygan, lekin yuqori darajadagi hududlarga qaraganda barqaror o'rta darajaga ega.

Qarshi tumani ham o'rta darajadagi kasallik ko'rsatkichlariga ega. Kasallik darajasi o'rta darajada, ammo pasayish kuzatilmoqda.

Muborak tumanida kasallik darajasi yuqoridan o'rta darajaga pasaygan. Bu o'zgarish hududdagi tibbiy xizmatning yaxshilanishi va ekologik sharoitning o'zgarishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Nishon tumani ham o'rta darajadagi kasallik ko'rsatkichlariga ega bo'lib, kasallik darajasi sezilarli ravishda pasaygan.

Chiroqchi tumani 2020-yilda kasallik darajasining o'sishiga guvoh bo'lgan. Ammo 2024-yilda bu daraja kamaygan. Tumanda ekologik va ijtimoiy omillarning tahlili zarur.

3. Past darajadagi kasalliklar (100 000 aholiga 5 000 dan past)

Koson tumani past darajadagi kasallik ko'rsatkichlariga ega. 2020-yilda kasallik darajasi juda past bo'lgan, ammo 2024-yilda kasallik ko'rsatkichlari ortgan.

Qamashi tumani ham past darajadagi kasallik ko'rsatkichlariga ega. Kasallik darajasi 2020-yilda yuqori bo'lgan, ammo keyinchalik kamaygan.

Dehqonobod tumani past darajadagi kasallik ko'rsatkichlariga ega. Kasallik darajasi 2020-yildan keyin pasaygan.

Kasbi tumani ham past darajadagi kasallik ko'rsatkichlariga ega. Bu hududda kasallik darajasi pasaygan.

Yakkabog' tumani past darajadagi kasallik ko'rsatkichlariga ega va kasallik darajasi pasaygan.

Mirishkor tumani o'rtacha kasallik darajasiga ega, ammo kasallikning kamayishi kuzatilmoqda.

Demak, Qashqadaryo viloyatining tumanlarini kasalliklar soniga qarab guruhlashda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Yuqori darajadagi tumanlar: Shahrisabz sh., Kitob tumani, G'uzor tumani, Chiroqchi tumani. Bu hududlarda kasallanish ko'rsatkichi juda yuqori bo'lgan va 2020-yilda o'sish kuzatilgan.

O'rta darajadagi tumanlar: Qarshi sh., Muborak tumani, Nishon tumani, Qamashi tumani. Bu hududlarda kasallik darajasi o'rta darajaga teng va pasayish kuzatilgan.

Past darajadagi tumanlar: Koson tumani, Dehqonobod tumani, Kasbi tumani, Yakkabog' tumani, Mirishkor tumani. Bu tumanlar past darajadagi kasallik ko'rsatkichlariga ega va kasalliklar sezilarli darajada kamaygan.

Bundan kelib chiqib, har bir tuman uchun alohida tibbiy va ekologik tahlillar o'tkazilishi zarur. Kasalliklarning o'sishi yoki kamayishini tushunishda ekologik, demografik va ijtimoiy omillarni chuqurroq tahlil qilish muhimdir.

Ba'zi qon kasalliklari genetik moyillik bilan bog'liq bo'lib, bu holat asosan yopiq jamoalarda (qishloq hududlarida) ko'proq uchraydi. Ayniqsa, gemofiliya va talassemiya kasalliklari ayrim oilalar doirasida nasldan-naslga o'tmoqda.

Qashqadaryo viloyatida qon va qon yaratish tizimi kasalliklarining tarqalishini ilmiy va iqtisodiy-geografik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu patologiyalar turli omillar bilan bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishida ekologik, iqtisodiy, demografik va ijtimoiy omillar kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, ekologik ifloslanish ushbu kasalliklarning asosiy sabablaridan biridir. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi natijasida havoning ifloslanishi, ichimlik suvining og'ir metallar bilan zaharlanishi va tuproqning kimyoviy moddalar bilan to'yinganligi gematologik kasalliklarning ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, Qarshi, Muborak va Koson kabi sanoatlashgan hududlarda qon kasalliklari darajasi yuqori bo'lib, bu sanoat chiqindilarining organizmga uzoq muddatli ta'siri bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligi rivojlangan Shahrisabz, G'uzor va Qamashi tumanlarida pestitsid va o'g'itlardan ortiqcha foydalanish suyak iligi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, qonning regeneratsiya jarayonlarini buzadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy rivojlanish darajasi va ijtimoiy sharoitlar ushbu kasalliklarning tarqalishida muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy jihatdan past darajadagi hududlarda yetarli va muvozanatli ovqatlanish imkoniyatining cheklanganligi natijasida temir tanqisligi anemiyasi, B12 yetishmovchiligi va gemoglobin darajasining pasayishi

kabi kasalliklar keng tarqalgan. Qashqadaryo viloyatining qator tumanlarida gematologik markazlarning yetishmovchiligi, maxsus laborator diagnostikaning mavjud emasligi va tibbiy xizmat sifati pastligi kasalliklarning kech aniqlanishiga hamda og'ir asoratlar bilan kechishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, demografik va genetik omillar qon kasalliklarining hududiy taqsimlanishiga bevosita ta'sir qilmoqda. Aholining yosh tarkibidan kelib chiqib, bolalar va homilador ayollar orasida anemiya holatlari yuqori uchraydi, bu esa homila rivojlanishining buzilishi va bolalar o'sishining sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayrim qishloq hududlarida genetik moyillik sababli irsiy qon kasalliklari – gemofiliya va talassemiya uchrash darajasi yuqori ekani kuzatilmoqda.

To'rtinchidan, psixologik va stress omillari ham qon kasalliklari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish korxonalarida band bo'lgan aholining yuqori stress sharoitida ishlashi, doimiy uyqusizlik, jismoniy faollikning kamayishi va noto'g'ri ovqatlanish odatlari qon yaratish jarayonining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa uzoq muddatda qon bosimi o'zgarishi, trombotsitopeniya va gematologik disfunktsiyalarning rivojlanishiga olib keladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy va amaliy choralarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

Sanoat korxonalarining chiqindilarini kamaytirish va ekologik monitoring tizimini kuchaytirish;

Ichimlik suvining sifatini oshirish bo'yicha zamonaviy filtrlash va tozalash tizimlarini joriy etish;

Qishloq xo'jaligida ekologik xavfsiz agrotexnologiyalardan foydalanish va pestitsidlardan me'yorida foydalanish choralarni kuchaytirish;

Viloyatda zamonaviy gematologik laboratoriyalar va maxsus tibbiy markazlar tashkil etish;

Anemiya va boshqa qon kasalliklarini erta aniqlash bo'yicha skrining dasturlarini joriy etish;

Qon donorligi tizimini takomillashtirish va reabilitatsiya markazlarini ko'paytirish;
Aholining yetarli va muvozanatli ovqatlanishini ta'minlash maqsadida maxsus ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish;

Mehnat sharoitlarini yaxshilash va zararli ishlab chiqarish korxonalarida sanitariya-me'yoriy talablarni kuchaytirish;

Ommaviy sog'lom turmush tarzi targ'ibotini olib borish va jismoniy faollikni oshirish dasturlarini amalga oshirish;

Qashqadaryo viloyati sharoitida qon kasalliklarining epidemiologik va statistik tahlilini muntazam olib borish;

Genetik moyillik va ekologik ta'sirlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish bo'yicha ilmiy loyihalarni rivojlantirish;

Hududiy qon kasalliklari xaritasini ishlab chiqish va xavf zonalarini aniqlash.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida qon va qon yaratish tizimi kasalliklarining yuqori darajada uchrashi tabiiy-geografik sharoit, ekologik omillar, iqtisodiy rivojlanish darajasi va demografik tarkib bilan bog'liq murakkab jarayondir. Ushbu muammoni hal qilish uchun kompleks tibbiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Viloyatda gematologik kasalliklarni kamaytirish uchun ekologik barqarorlikni ta'minlash, muvozanatli ovqatlanishni rag'batlantirish, tibbiy xizmat sifati va infratuzilmani yaxshilash hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish talab etiladi. Bu yo'nalishdagi tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi aholi salomatligini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smith, J. R., & Brown, M. P. (2018). Geography and Public Health: Global Perspectives on Disease and Environment. 2nd ed. Routledge, pp. 23-45. ISBN: 978-0367331819.

2. Patel, S., & Lee, D. (2017). Environmental Factors and Public Health: The Role of Geography in Disease Spread. Springer, pp. 67-90. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-55393-3>
3. Williams, H., & Zhang, Y. (2016). The Geospatial Distribution of Health Risks: A Global Approach to Public Health Policy. Oxford University Press, pp. 150-172. ISBN: 978-0198702121.
4. Wilson, D. A., & Walker, T. M. (2015). Health and the Environment: An Ecological Perspective on Disease. Cambridge University Press, pp. 80-110. <https://doi.org/10.1017/CBO9781107584804>
5. Johnson, P., & Williams, R. (2014). Global Health and Environmental Change: Perspectives on Regional Health Variations. Elsevier, pp. 200-220. ISBN: 978-0124047110.
6. Komilova, N.K.(2010) Territorial Analysis of Medical-geographical Conditions and the Problems of Health of the Population of the Republic of Uzbekistan. Journal of Environmental Science and Engineering. 4(12), 64-68
7. Turner, S., & Foster, T. (2009). Public Health and Global Disease Geography. Cambridge University Press, pp. 60-85. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511771290>
8. World Health Organization (WHO). (2020). Global burden of digestive diseases. Geneva: WHO Press.
9. Khujamova Sanobar Boltaevna. (2023). Nozogeographic situation and factors influencing them // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, Hosted online from Paris, France. 2 (4), P. 353-358.
10. Khujamova S.B. (2023). History of nosogeographical research and its scientific and theoretical issues // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №9 (112). С. 152-159.

- 11.Xujamova S.B. (2023). Xavfli kasalliklar va ularning geografiyasi // Zamonaviy geografiya: innovatsion rivojlanishining ilmiy-uslubiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (Urganch, 27-28-oktyabr). B. 219-222
- 12.Khujamova S.B. (2024). Geography of the spread of virus diseases in Uzbekistan and nozogeographic environment ways to improve // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. International scientific-online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14326687>
- 13.Xujamova S.B. (2024). Virusli kasalliklarning tarqalish geografiyasi va nozogeografik muhitni yaxshilash yo'llari // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14263769>